

3. European Commission/EACEA/Eurydice. (2018). The European Higher Education Area in 2018: Bologna Process Implementation Report. Luxembourg: Publications Office of the European Union.

**Oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirish shart-sharoitlari,
tamoyillari va baholash bosqichlari.**

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
tadqiqotchisi Murodov Alisher Murodovich
tel: +998979343223
elektron pochta::murojonov2018@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim xizmatlari tizimini innovatsion rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, ushbu sohada samaradorlikni oshirish bo'yicha xalqaro tajribalardan keng ko'lamda foydalanish, ta'lim xizmatlari bozorining konyunkturasi o'zgarishi hamda oliy ta'lim muassasalarining malakali ilmiy salohiyatga ega bo'lgan kadrlar bilan ta'minlash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim xizmatlari, mexanizm, baholash, oliy ta'lim tizimi, innovatsion faoliyat, raqobatbardoshlik.

Abstract: This article discusses the socio-economic significance of the innovative development of the higher education services system, the wide use of international experience in increasing efficiency in this area, changes in the market conditions of educational services, and proposals and recommendations for providing higher education institutions with qualified scientific personnel.

Key words: Educational services, mechanism, evaluation, higher education

system, innovative activity, competitiveness.

Bugungi kunda sodir bo'layotgan transformatsion jarayonlar fonida mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida ijtimoiy ahamiyatga ega ijobiy natijalarga erishish maqsadida oliy ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish vazifasi alohida dolzarb ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zarurat etgan holda, oliy ta'lim xizmatlari sifati va samaradorligini keskin oshirish, sohada fan-texnika yutuqlarini o'quv jarayoniga joriy etishni talab etmoqda.

Inson taraqqiyoti innovatsiyalarning global tavsifi bilan ta'minlanadi. Buning uchun oliy ta'lim tizimida qulay muhitni yaratish, innovatsion faoliyatning barcha turlarini va ularning tashkiliy tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmini yaratish, ilm-fanni rivojlantirish va innovatsion loyihalar samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Respublikamizda innovatsiyalarni faollashtirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi holatini o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Mamlakatimizda OTMlarida innovatsion salohiyatni oshirish va uning imkoniyatlarini kengaytirish bu sohaning istiqbolli yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimida ilmiy, texnologik va innovatsion siyosatning asosiy vazifalari jahon malaka talablari darajasida mutaxassislar, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash hamda innovatsion salohiyatni rivojlantirish mamlakatning ijtimoiy muammolarini hal etishda muhim masala hisoblanadi. Ushbu muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish ko'p jihatdan ta'lim faoliyatining barcha ishtirokchilarining innovatsion jarayonlarga qo'shilish darajasi bilan bog'liq.

Hozirgi vaqtda respublikamiz OTMlarida, ularning innovatsion rivojlanishi va faoliyati samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga alohida e'tibor qaratish zarur. OTMlarining innovatsion rivojlanishi ularning raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim va hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning zamonaviy sharoitida raqobatbardoshlikni

ta'minlash uchun alohida olingan hudud yoki milliy darajada muvaffaqiyatli rivojlanishida muhim rol o'ynovchi oliy ta'lim tizimida innovatsiyalarni yaratish va joriy etishga ko'maklashadigan shart-sharoitlarni yaratishi lozim.

Shuning uchun asta-sekin mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan va OTMga xos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni aniqlagan holda, ilmiy tushuncha apparatini yanada takomillashtirishni talab qiladigan innovatsion rivojlanishni baholash eng raqobatbardosh universitetni aniqlashda dastlabki qadam bo'lishi mumkin.

OTMning innovatsion rivojlanish darajasini aniqlash uchun uning faoliyati natijalarini va innovatsion iqtisodiyot talablariga muvofiqligini baholashga imkon beradigan ko'rsatkichlar tizimi kerak.

Hozirgi vaqtda OTMning innovatsion rivojlanishini baholashning yagona, yaxshi o'rnatilgan metodologiyasi mavjud emasligi sababli ushbu masala bo'yicha kelgusidagi tadqiqotlar hamda OTMning innovatsion rivojlanishini to'liq tavsiflovchi ko'rsatkichlarning kompleks to'plamini tanlash va baholashni o'tkazish bosqichlaridan iborat tahlil o'tkazishning rasmiylashtirilgan algoritmini ishlab chiqish talab etiladi. OTMning innovatsion faoliyatini baholash ko'rsatkichlari nomenklaturasini tanlashni o'z ichiga olgan, o'zida jami operatsiyalar majmuini nazarda tutuvchi hamda ushbu ko'rsatkichlar qiymatini raqobatdosh OTMlarining tegishli ko'rsatkichlari qiymatlari bilan taqqoslash orqali OTMning innovatsion rivojlanish darajasini baholash mexanizmini ishlab chiqish kerak.

OTMning innovatsion rivojlanishini baholash asosiy maqsad emas, balki baholash natijalaridan foydalanish maqsadiga bo'ysinadi. Tahlilning ishonchliligi, ob'ektivligi, asosliligi va axborot bilan ta'minlanganligi qo'yilgan maqsadning qanchalik darajada to'g'ri belgilanganligiga bog'liqdir. Baholashning samaradorligi pirovardida innovatsion jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonlarini takomillashtirish bilan aniqlanadi.

Xulosa va tavsiyalar.

Olib borilgan tadqiqotlar quyidagilarni ko'rsatmoqda:

1. Universitetning innovatsion faoliyatini baholashning yagona tizimini yaratish zarurati oliy o'quv yurtlarida innovatsion muhit va infratuzilmani rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlarini amalga oshirishda byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini nazorat qilish bilan bog'liq.

2. Innovatsion muhit darajasini va uning barcha elementlarining samaradorligini doimiy ravishda kuzatib borish juda muhimdir. Biroq, universitetlarning innovatsion faoliyatini baholashning mavjud usullaridan foydalangan holda, universitetning innovatsion muhiti darajasi, uning faolligi va tashqi biznes muhitiga muvofiqligi haqida to'g'ri xulosa chiqarish juda qiyin. Baholash mezonlari universitetdagi innovatsion jarayon kontseptsiyasining mohiyatini ochib bera olmaydi, uning samaradorligi, natijalari va hududdagi tadbirkorlik va ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashuvi haqida xulosa chiqarishga imkon bermaydi.

3. Integral ko'rsatkichning qiymatini oshirish uchun universitet ma'lum sohalarda past ko'rsatkichlarni, masalan, innovatsiyalar rivojlanishini rag'batlantiradigan ta'lim faoliyati darajasini teng ravishda yaxshilashi kerak. Bu unga asosiy rivojlanish tendentsiyalarini belgilash va raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Shunday qilib, birinchi yo'nalish - universitetda innovatsiyalarni yaratish bo'yicha faoliyat - innovatsiyalarni yaratish, o'zlashtirish va tarqatish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan ish turlarini o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Axunova G. O'zbekistonda ta'lim xizmatlari marketingi muammolari. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. – T.: Iqtisod-Moliya, 2005 y. – 244 b.;

2. Баженова В.С. Непрерывное образование в условиях трансформации экономической системы. – М.: Изд. Рос. экон. акад, 2000-216 с.

3. Воронин А.В. Университет как системообразующий региональный научно-инновационный комплекс // Высшее образование в России. – 2010. – №8–9. – С. 62-68.
4. Высшее образование сегодня. 2008. № 8. Издательская группа «Логос», 2008. - С. 5.
5. Гребенюк И.И., Голубцов Н.В., Кожин В.А., Чехов К.О., Чехова С.Э., Федоров О.В. Анализ инновационной деятельности высших учебных заведений России: монография. / под. ред. И.И. Гребенюк – М.: Изд-во «Академия Естествознания», 2012. – 464 с.
6. Захарова Л.В. Формирование и развитие образовательных услуг: автореф. дисс. канд. экон. наук / Белград. 2002-235с.;
7. Лукашенко М.А. Высшее учебное заведение на рынке образовательных услуг: актуальные проблемы управления. – М.: Изд. Маркет ДС, 2003. -358 с.;

TEXNOLOGIYALAR SHAKLIDAGI INNOVATSIYALAR VA ULARNING SAMARADORLIGI

Bekmurodov Abbos Amiriddinovich
SamISI katta o'qituvchisi
Qarshiyev Avazbek Sa'dullayevich
avazqarshiyev@yahoo.com
ORCID ID: 0009-0007-4688-7558

Annotatsiya: Ushbu maqolada Innovatsiyalar samaradorligi indeksi (IEI), investitsiyalar rentabelligi (ROI), yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishi va mehnat unumdorligi kabi asosiy ko'rsatkichlar yordamida texnologik innovatsiyalarning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini ko'rib chiqiladi. Hisob kitob ishlarini olib borish uchun esa AQShning yetakchi kompaniyalari, jumladan Tesla, Amazon kabilarning Web Services va 5G texnologiyasini joriy etishning foydalangan holda tadqiqot